$$\text{v) } \Delta G_{298}^0 = \Delta H_{298}^0 - 298 \cdot \Delta S_{298}^0$$

$$\begin{aligned} \Delta G_{298}^0 &= \sum \Delta G_{298}^0 \text{ oxir.} - \sum \Delta G_{298}^0 \text{ bosh.} = (\Delta G_{298}^0_{SO_2} + 2\Delta G_{298}^0_{N_2O}) - (\Delta G_{298}^0_{SN_3ON} + \\ &+ 1,5\Delta G_{298}^0_{O_2}) = (-394,37 - 2 \cdot 228,61) - (-162,38 + 1,5 \cdot 0) = -851,59 + 162,38 = -689,21 \text{ kj} = \\ &-689210 \text{ j} \end{aligned}$$

2. $\Delta H < 0$; $\Delta S > 0$; $\Delta G < 0$

Jarayon barcha xaroratlarda boradi

3. $\Delta S_{T_{298}}^0$ ni Δa , Δb , Δs $\Delta s'$ koeffitsientlarni aniqlaymiz

a) xaqiqiy standart issiqlik sig'imlari.

$$\Delta Sr_{298}^0 = \sum \Delta Sr_{298}^0 \text{oxir.} - \sum \Delta Sr_{298}^0 \text{bosh.} = (\Delta Sr_{298}^0 \text{SO}_2 + 2\Delta Sr_{298}^0 \text{N}_2\text{O}) - (\Delta Sr_{298}^0 \text{SN}_3\text{ON} + 1,5\Delta Sr_{298}^0 \text{O}_2) = (37,11 + 2 \cdot 33,61) - (44,13 + 1,5 \cdot 29,37) = 104,33 - 88,185 = 16,145 \text{ j/grad}$$

$$\text{b) } \Delta a = (\Delta a_{\text{SO}_2} + 2 \Delta a_{\text{N}_2\text{O}}) - (\Delta a_{\text{SN}_3\text{ON}} + 1,5 \Delta a_{\text{O}_2}) = (44,14 + 2 \cdot 30,0) - (15,28 + 1,5 \cdot 31,46) = 104,14 - 62,47 = 41,67$$

$$\text{v) } \Delta b = [(\Delta b_{\text{SO}_2} + 2\Delta b_{\text{N}_2\text{O}}) - (\Delta b_{\text{SN}_3\text{ON}} + 1,5\Delta b_{\text{O}_2})] \cdot 10^{-3} = [(9,04 + 2 \cdot 10,71) - (105,20 + 1,5 \cdot 3,39)] \cdot 10^{-3} = (30,46 - 110,285) \cdot 10^{-3} = -79,825 \cdot 10^{-3}$$

$$\text{g) } \Delta s = 31,04 \cdot 10^{-6}$$

$$\text{d) } \Delta s' = [(-8,54 + 2 \cdot 0,33) - (-1,5 \cdot 3,77)] \cdot 10^5 = (-7,88 + 5,655) \cdot 10^5 = -2,225 \cdot 10^5$$

$$Sr = 41,67 - 79,825 \cdot 10^{-3} \cdot T + 31,04 \cdot 10^{-6} \cdot T^2 - \frac{2,225 \cdot 10^5}{T^2}$$

800K dagi issiqlik sig'imi.

$$Sr_{800} = 41,67 - 79,825 \cdot 10^{-3} \cdot 800 + 31,04 \cdot 10^{-6} \cdot 800^2 - \frac{2,225 \cdot 10^5}{800^2} = 41,67 - 63,86 + 19,87 - 3,48 = -5,8 \text{ j/grad}$$

4. Issiqlik effektining xaroratga bog'likligi

$$\Delta N_T^0 = \Delta N_0^0 + \Delta a \cdot T + \frac{\Delta b \cdot T^2}{2} + \frac{\Delta s \cdot T^3}{3} - \frac{\Delta c'}{T}$$

$$\Delta N_T^0 = \Delta N_0^0 + 41,67 \cdot T + \frac{79,825 \cdot 10^{-3} \cdot T^2}{2} + \frac{31,04 \cdot 10^{-6} \cdot T^3}{3} - \frac{2,225 \cdot 10^5}{T}$$

Integrallash doimiysi ΔH_0^0 ni aniqlaymiz. Buning uchun ΔH_T^0 ni ΔH_{298}^0

tenglashtiramiz T urniga 298 ni quyamiz. Unda,

$$\Delta N_T^0 = -676130 + 41,67 \cdot 298 + \frac{79,825 \cdot 10^{-3} \cdot 298^2}{2} + \frac{31,04 \cdot 10^{-6} \cdot 298^3}{3} - \frac{2,225 \cdot 10^5}{298}$$

$$= -676130 - 12418 + 3544 - 274 - 757 = -689579 + 3544 = -685035 \text{ dj}$$

$$\Delta N_T^0 = -686035 + 41,67 \cdot T + \frac{79,825 \cdot 10^{-3} \cdot T^2}{2} + \frac{31,04 \cdot 10^{-6} \cdot T^3}{3} - \frac{2,225 \cdot 10^5}{T}$$

T = 800K dagi issiqlik effekti

$$\Delta N_{800}^0 = -686035 + 41,67 \cdot 800 + \frac{79,825 \cdot 10^{-3} \cdot 800^2}{2} + \frac{31,04 \cdot 10^{-6} \cdot 800^3}{3} - \frac{2,225 \cdot 10^5}{800}$$

$$= -686035 + 33336 - 25544 + 5297 + 278 = -672668 \text{ j}$$

5. Gibbs.energiyasini aniqlaymi

$$\Delta G_T^0 = \Delta H_{298}^0 - 298 \cdot \Delta S_{298}^0 = -676130 - 800 \cdot 43,78 = -710354 \text{ j}$$

Energiyu Gibbs energiyasini yanada aniqroq formula yoramida aniqlash mumkin.

$$\Delta G^0 = \Delta N_0^0 - T \int \frac{dT}{T^2} \int \Delta C_p \cdot dT + \int T = \Delta N_0^0 - \Delta a \cdot T \cdot \ln T - \frac{\Delta b \cdot T^2}{2} - \frac{\Delta c \cdot T^3}{6} - \frac{\Delta c'}{2 \cdot T} +$$

6. Muvvazanat konstantasini aniqlaymiz

$$\Delta G_T^0 = -RT \ln K_p$$

$$\lg K_p = - \frac{\Delta G_T^0}{2,303 \cdot RT} = - \frac{-710354}{2,303 \cdot 8,314 \cdot 800} = 46.3747$$

$K_p = 2.37 \cdot 10^{46}$ K_p qiymati juda katta shunint uchun reaksiya unga siljiydi

Boshlang'ich aralashma

Muvvazanat tarkib

$$SN_3ON = 1$$

$$O_2 = 1,5$$

$$\Sigma = 2,5$$

$$SN_3ON = 1 - X$$

$$O_2 = 1,5 - 1,5X = 1,5(1 - X)$$

$$SO_2 = X$$

$$N_2O = 2X$$

$$\Sigma = 2,5 + 0,5X$$

P

$$K_{muv.} = K_n \cdot K_\gamma \cdot \left(\frac{P}{\Sigma n}\right)^{\Delta n} \quad \Delta n = 3 - 2,5 = 0,5$$

Σn

$$x \cdot (2x)^2$$

$$K_r = \frac{P}{(1-x)(1-x)^{1,5} \cdot 1,5^{1,5}} = 2,37 \cdot 10^{46}$$

$$(1-x)(1-x)^{1,5} \cdot 1,5^{1,5}$$

Muvvazanat konstantasini yanada aniqroq tenglama yordamida xam aniqlash mumkin

$$\lg K_a = - \frac{\Delta N_0^0}{RT \cdot 2,303} + \frac{\Delta a}{R} \lg T + \frac{\Delta b \cdot T}{2R \cdot 2,303} + \frac{\Delta c \cdot T^2}{6R \cdot 2,303} + \frac{\Delta c'}{2R \cdot T^2 \cdot 2,303} + \frac{J'}{2,303}$$

$$x \approx 0,9999$$

Unda gazlar aralashmasining muvavazanat tarkibi %

$$SN_3ON = 1 - 0,9999 = 0,0001 \quad 0,003$$

$$O_2 = 1,5 - 1,5 \cdot 0,9999 = 0,00015 \quad 0,005$$

$$SO_2 = 0,9999 = 0,9999 \quad 33,331$$

$$N_2O = 2 \cdot 0,9999 = 1,9998 \quad 66,661$$

$$2,99995$$

$$100$$

1.1. ENERGETIK BALANS

Termodinamikaning asosiy koidalarining ayrimlarini keng tarkalgan texnologik jarayon-bug‘latish (1-1 rasm) misolida izoxlab berish mumkin.

Bo‘g‘lanish energiya oqimlari:

Q_n

Rasm.1-1.



$Q_1(T_1)$ - keltirilgan issiklik;

$Q_2(T_2)$ - olib ketilgan bo'g'lar issiqligi; Q_n - atrof muxitga

tarkaladigan issiqlik yo'qotmasi.

Apparatga T_1 temperaturada keltirilgan issiklik miqdori Q_1 va bug'lantirilaetgan modda bug'lari bilan olib ketilaetgan T_2 temperaturadagi (masalan: suv bo'g'lari bilan) issiklik miqdori Q_2 . Bundan tashkari ma'lum miqdordagi issiklik atrof muxitda yo'qoladi (Q_n – issiklik yo'qotmasi). Termodinamikaning birinchi konuniga kura:

$$Q_1 = Q_2 + Q_n \quad (1.1)$$

(1.2) tenglamasi – bo'g'lanishning energetik balansining tenglamasidir.

Agarda issiklik yukotmalarini xisobga olmasak ya'ni $Q_n < Q_1$, u xolda $Q_1 = Q_2 \cdot Q_1$ miqdorini energiya sarfiyoti deyiladi. Bu atama jiddiyas. Termodinamikaning birinchi konuniga muvofik energiya sarflanmaydi, balki bir kurinishdan boshkaga utadi. Ushbu xolatda energiya issiklik olib keluvchi Q_1 keltirilishi natijasida suv bug'i energiyasiga utdi ya'ni ikkilamchi issiklik Q_2 paydo buldi, uni kandaydir foydali maksadlarga ishlatish mumkin. SHuning uchun Q_1 ni «keltirilgan energiya», Q_2 ni esa «olib ketilgan» (ajratib chikkan) «energiya» deb atash tugrirok buladi. Kupincha shuningdek energiya yukotmasi tushunchasini ishlatishadi. Ammo bu yukorida aytilganlarga kura anik emas. Ayrim xollarda sistemadan olib ketilgan energiya okimlarini oldindan foydalanib bulmasligi ma'lumligini belgilashda foydalanish mumkin. Ushbu xolda issiklik yukotmasiga izolyasiya orkali atrof muxitga Q_n issikligi yukotmasi, shuningdek bir joydan ikkinchi joyga nasos orkali gaz va suyukliklarni xaydash bilan boglik yukotmalar kiradi. Oxirgi xolda nasosga keltirilgan energiya trubaprovodni kizdirishga sarflanadi va sungra atrof muxitga tarkaladi. Agar Q_2 foydalanilmasa, uni kupincha «issiqlik yukotmasi»ga kiritadilar. SHunday kilib, «energiya yukotmalari» deganda texnik sistemada foydalanilmaydigan energiyani tushunish kerak (masalan, u ishlatishga yaramaydigan shaklga utadi).

SHunday kilib, yukorida keltirilgan misoldagi umum kabul kilingan energetik balans jarayon tugrisida juda xam muxim informatsiyani beradi. Ammo bu informatsiya

tula emas va jarayon tugrisida notugri tassavurga olib kelishi mumkin. Avvalambor energetik balansdan jarayon energetik sarfietiga nimalarni kiritish ravshan emas. Keng tarkalgan $Q_n=0$ bulganda termodinamikaning birinchi konunidan foydalanilsa bu masala rasman (formalno) echimga ega emas.

Agarda Q_2 issiklikdan foydalanilmasa, u xolda bu sarfietlar Q_1 teng buladi deb kabul kilinadi. Agar Q_2 issiklikdan tula foydalanilsa, u xolda energetik sarfietlar rasman (formalno) nulga teng, bu esa «soglom akl» (zdravomu smyslu) deb ataluvchi fikrga ziddir. Xakikatan, birinchidan sarfietlar mavjud, ikkinchidan ularni mikdoriy jixatdan aniklash kiyin. Bu xolda yana jarayonni samaradorligini va uning takomillashganlik darajasini baxolash kiyin. Kupincha jarayonning samaradorligini baxolash uchun foydali ish koeffitsientini (FIK) ishlatishadi. FIK foydali samaradorlikning sarfietlarga nisbatiga barobardir. Ushbu xolda «issiklik» yoki «termik» FIK barobar buladi.

$$\eta_Q = Q_2 / Q_1 = 1 \quad (1.2)$$

Demak, issiklik FIK tula foydali informatsiya bermaydi, chunki xar kandy jarayon, uning texnologik shakllanishiga karamay barcha okimlarni tula xisobga olganda FIK birga va birga yakin buladi. Agarda olingan natijaga ishonsak jarayonni takomillashtirishga xojat kolmaydi.

Keltirilgan misolga uxshash misollarni cheksiz davom ettirish mumkin. Barcha kimyoviy ishlab chikarishda katta mikdordagi issiklik sistemadan ikkilamchi energetik resurslar (IER) deb ataluvchi kurinishda olib ketiladi. Energotexnologiya tizimini to'g'ri yaratish zaminida birlamchi energoresurslardan foydalanishni mumkin qadar kamaytirish yoki tashqaridan beriladigan issiqlik va elektr energiyasidan butunlay voz kechish uchun qilinadigan tadbirlar yotadi. Bu yo'lda **energokimyo - texnologiya** tizimlarini ishlab chiqarish maqsadga muvofiqdir. Unda esa energetik jixozlar kimyo texnologik jixozlar bilan to'g'ridan to'g'ri bog'lanib yagona tizimni xosil qiladi. Bunda kimyoviy omillarning o'zgarishi energetik omillarning o'zgarishiga va aksinchaga olib keladi. EKTTda ishlab chiqarish texnologik va energetik bosqichlarda mustaxkam bog'lanish vujudga keladi. Birlamchi energiya reserularini tejash maqsadida ikkilamchi energiya reserularidan keng foydalaniladi. Ikkilamchi energiya reserulari (IER).

Barcha kimyoviy ishlab chiqarishda energiyaning talay qismi tizimdan IER sifatida chiqib ketadi. Agar biror tizimda endotermik kimyoviy reaksiya ketayotgan bo'lsa, unda tizimga berilgan issiqlikning bir qismi Q_x kimyoviy reaksiya borishi uchun sarf bo'lsa qolgani esa Q_2 issiq xoldagi reaksiya maxsuloti bilan IER sifatida chiqib ketadi.

$$Q_1 = Q_2 + Q_x$$

IER larni qay darajada to'liq ishlatish mumkin?

Termodinamikaning II qonuniga ko'ra ikkilamchi issiqlik sifati birlamchi issiqlik sifatidan past bo'ladi, yani Q_2 ni Q_1 bilan bir xil baxolash mumkin emas. Uni (Q_2) Q_1 singari ishlatib bo'lmaydi. Balki uni boshqa maqsadlarda ishlatish mumkin.

Ishlab chiqarishda past potentsiilli issiqlik miqdori ko'p buni ishlatish yo'llarini topish va uning entropiyasini ko'payishini oldini olish yo'lini topish kerak.

IER deganda texnologik agregatda qurilma va jarayonda xosil bo'ladigan, lyokin shu agregatda ishlatilishi mumkin bo'lmagan va boshqa agregatni energiya bilan ta'minlashda qisman yoki to'liq ishlatilishi mumkin. CHiqindi, o'tkinchi va qo'shimcha maxsulotlarning kimyoviy bog'langan issiqligi, fizik issiqligi va ortiqcha bosimning potensial energiyasi tushuniladi.

IERlarning manbaalari bo'lib sanoat pechlari, reaktorlar, sovutgichlar, bug' ishlatuvchi qurilmalar xizmat qiladi.

IERdan qayta foydalanish deb – IER ni yokilg'i, issiqlik, elektr va mexanik energiyaga bo'lgan extiyojini qondirish maqsadida boshqa agregat va qurilmalarda ishlatishga aytiladi. IERlarni yoqilg'i va energiya extiyojini qondirish maqsadida ikki xil yo'nalishda ishlatish mumkin.

1. IER ni to'g'ridan to'g'ri o'zgartirmasdan ishlatish.
2. IER qurilmalarda issiqlik, sovuqlik, elektr, mexanik energiyaga aylantirib olinadi.

IERdan foydalanish deb – iste'molchining IERlari xisobiga ishlatilgan energiya miqdoriga aytiladi. IER xisobiga tejalayotgan yoqilg'i, IER ning yoqilg'ini tejash ko'rsatgichi deyiladi.

IER qayta foydalanish ko'ffsienti deb – IER xisobiga amalda tejalgan yoqilg'ining iqtisodiy jixatdan kerak bo'lgan nisbatiga aytiladi.

IERni uning turiga qarab 3 turga ajratiladi.

1. YOuvchi yoki yoqilg'i sifatida IER.

2. Issiqlik IER.

3. Ortiqcha bosimli IER.

IERdan qayta foydalanishda 4 ta asosiy yo'nalish bor.

1. IERlarning yoqilg'i turi to'g'ridan to'g'ri yoqilg'i sifatida ishlatiladi.

2. Issiqlik beruvchi IERlarning issiqligidan qayta foydalanish.

3. IERlaridan qayta foydalanish qurilmasida IERlar xisobiga elektr va mexanik energiyani xosil qilib kuch sifatida foydalanish.

4. Qayta foydalanuvchi IERlarda IERlar xisobiga issiqlik, mexanik va elektr energiyasini kombinatsiyalab, energiya xosil qilish maqsadida foydalanish.

Agarda rasm 1-1 kursatilgan sxemada bug'lanish emas, endotermik kimyoviy reaksiya boraetgan bulsa, u xolda Q_x keltirilgan issiklik kismi kimyoviy reaksiyani borishi uchun sarflanadi, kolgan issiklik Q_2 ikkilamchi energetik resurslar sifatida isigan reaksiya maxsulotlari bilan olib ketiladi. U xolda ikkilamchi issiklik mikdori $Q_2 = Q_1 - Q_x$ (1.3) ga teng buladi. (1.3) tenglamasini taxlil kilganimizda IERdan tula foydalanganimizda shunday ta'surot tugiladiki, energetik sarfietlarni Q_1 -dan $Q_1 - Q_2$ gacha kamaytirilishi va shunga mos ravishda keltiriladigan issik uchun yokilgi sarfini kamaytirish mumkin. Bu xulosa, umuman notugri ekanligini pastda kursatamiz, chunki bu energetik okimlarning – sifati turlichadir. Energetik balansga kura tejash kamrok buladi. SHuning uchun oddiy xolatda xam energetik balans energiya – «sifat», «kimmat»lar bilan xarakterlanuvchi boshka ma'lumot bilan tuldirilgan bulishi kerak. Bunday ma'lumotni termodinamikaning ikkinchi konunidan olish mumkin.

Tayanch suzlar va iboralar: keltirilgan issiklik, olib ketilgan issiklik, energiya sarfiyoti, energiya yukotmalari, issiklik FIKi, termik FIK, ikkilamchi energetik resurslar.

Reyting nazorat savollari:

1. Energetik balans nima?
2. Termodinamikaning birinchi konuniga muvofik energiya sarflanadimi?
3. Keltirilgan energiya nima?
4. Olib ketilgan energiya nima?
5. Sistemadan olib ketilgan energiya okimlaridan oldindan foydalanib buladimi?
6. Issiklik yukotmasi deganda nimani tushunasiz?

7. Energetik balans jarayon tugrisida tulik inorfmatsiya beradimi?
8. Energetik balansga kura jarayon energetik sarfiyotiga nimalarni kiritish mumkin.
9. Jarayonning samaradorligini baxolashda foydali ish koeffitsienti foydali informatsiya beradimi?

Termodinamikaning ikkinchi qonuni. Kaytar va kaytmas jarayonlar

№4-5–ma’ruzaning o’qitish texnologik modeli (4 SOAT)

O’qitish vaqti: 2 soat	Talabalar soni – ___ ta
O’quv mashg’ulotining shakli	Ma’ruza
Ma’ruza rejasi	1. Termodinamikaning ikkinchi qonuni. 2. Karno ta’rifi 3. Kaytar va kaytmas jarayonlar 4. Iboralar va undagi izoxlar.
Ma’ruzaning maksadi	Talabalarga termodinamikaning ikkinchi qonuni, Karno ta’rifi, kaytar va kaytmas jarayonlar, xamda iboralar va undagi izoxlar to’g’risida ishlab chikarish bilan bog’lagan holda ma’lumot berish
<p>Pedagogik vazifalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Talabalar diqqatini shu kunning asosiy siyosiy iktisodiy voqealar va o’rganilayotgan mavzuga qaratish; -Talabalarda talabalarga termodinamikaning ikkinchi qonuni, Karno ta’rifi, kaytar va kaytmas jarayonlar, xamda iboralar va undagi izoxlarni o’rganish davomida olgan ma’lumotlarini o’z kasb faoliyati davomida nazariy va amaliy tomondan mustakil ko’llay olish bilim va ko’nikmalarini shakllantirish. 	<p>O’qitish faoliyatining mazmuni</p> <ul style="list-style-type: none"> - Mashg’ulot boshlanadi, tashkiliy ishlar amalga oshiriladi; -Mavzuning mazmuni rejaga asosan tushuntirila boshlanadi; - Talabalarga termodinamikaning ikkinchi qonuni; - Karno ta’rifi; - kaytar va kaytmas jarayonlar; - iboralar va undagi izoxlar tug’risida xam ma’lumot berib o’tiladi.
O’qitish uslubi	Ma’ruza, muloqot, aqliy xujum, muammoli holatlar va ularning echimini topish.
O’qitish vositalari	Kompyuter, plakat, maketlar. ma’ruzaning tarqatma materiallari.

Monitoring va baxolash	Talabalarning o'quv materialini konspektlashtirish va mavzunini tushunib o'zlashtirib borishini nazorat qilish.
------------------------	---

Kafedra mudiri:

Umirov F.E.

Ma'ruza o'qiydi:

katta o'qituvchi Xudoyberdiev F.I.

_____ KT guruhida «Energotexnologiya»
fanidan **Termodinamikaning ikkinchi qonuni**
№ 4-5– ma'ruzaning o'qitish texnologik xaritasi

Ishning bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talabalar
Tayyorgarlik darajasi	<ul style="list-style-type: none"> - Mashg'ulot borishini texnologik modeli va texnologik xaritasini tuzadi; -Tarqatma materiallar, ko'rgazmali qurollar, o'qitishning axborot informatsion vositalarini tayyorlaydi. 	Ma'ruza matnini oladi, uning mazmuni bilan tanishadi, tayyorlanadi
I-boskich Mashg'ulotining boshlanishi (10 min)	<p>1.1. Tashkiliy tadbirlarni amalga oshiradi; davomatni tekshiradi; ijtimoiy hayotda sodir bo'layotgan asosiy o'zgarishlarni yangi mavzuni e'lon qiladi.</p> <p>1.2. Mavzuga doir asosiy iboralarni aytib, axborot informatsion manbaalar bilan tanishtiradi.</p>	-Tinglaydi, aniqlashtiradi-yangi mavzu va uning maqsadi, rejasini belgilab oladi;
II bosqich Asosiy bosqich (65 min)	<p>2.1. qisqa savol-javob o'tkazib yangi mavzuni dolzarbligi ochib beriladi.</p> <ul style="list-style-type: none"> - hayotda va ishlab chiqarishda mavjud hodisa muammolariga oid savollar beradi va holatlarni eslatadi. - Talabalarning diqqatini yig'adi va mavzuni tinglashga yo'naltiradi. <p>2.2. Mavzu bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirishni tashkil etadi.</p> <ul style="list-style-type: none"> - Reja bo'yicha ma'ruzani bayon etadi. - Ma'ruzada termodinamikaning ikkinchi qonuni tug'risida ma'lumot beradi. 	<p>-Ma'ruzani tinglaydi, matnni to'ldirib boradi, yangi iboralarni tushunib aniqlashtiradi, o'zlashtiradi.</p> <p>Savol-javobda qatnashadi, muhokama qiladi</p> <p>Sxema-rasmlarni kuzatadi va tahlil qiladi;</p>

<p>III bosqich YAkuniy bosqich (5 min)</p>	<p>3.1. Mavzu bo'yicha mustaqil ta'lim topshiriqlarini, uning o'quv-uslubiy ta'minoti va bajarilishi bo'yicha tegishli yo'riqnoma beradi.</p>	<p>Tinglaydi, aniqlashtiradi, matnni to'ldiradi. Tinglaydi, aniqlashtiradi, belgilab oladi</p>
--	---	--

Kafedra mudiri:

Umirov F.E.

Ma'ruza o'qiydi:

katta o'qituvchi Xudoyberdiev F.I.

ASOSIY KISM

1. Termodinamikaning ikkinchi qonuni.

Tabiatda yuz beradigan jarayonlardan shu narsa kelib chiqadiki, ixtiyoriy termodinamik tizimni o'zining boshlang'ich xolatiga qaytishi uchun o'rab turgan muxitda hech qanday o'zgarish bo'lmasdan ro'y berishi mumkin emas, ya'ni ishchi jismga issiqlik shaklida uzatilgan ichki energiya to'liq xolda ishga aylana olmaydi.

Tabiatda qaytar jarayonlar bo'lmagnligi uchun ishchi jism boshlang'ich xolatga o'tish vaqtida tizimda malum o'zgarishlar yuz beradi, yani energiyaning malum bir qismi qaytmas xolatda tizimda vujudga keladigan $\Delta R/R$, $\Delta T/T$, $\Delta V/V$ gradientlar sifatida sarflanadi.

Bunda qaytar jarayondagi gazning kengayish ishi qaytmas jarayondagidan katta bo'ladi.

$$A_{qay} - A_{kaytma} = \Delta A$$

ΔA - qaytmas jarayondagi energiyaning yo'qolishi.

Energetik yo'qotmalarni miqdoriy xarakteristikasi kerak. Agarda $T_2 < T_1$ bo'lganda $Q_1 = Q_2$ bo'lsa, $Q_1/T_1 < Q_2/T_2$ bo'ladi, mos ravishda $Q_1/T_1 = S_1 < Q_2/T_2 = S_2$ (yani $S_1 < S_2$). Bu erda S_1 va S_2 sistemaga **ishchi jism bilan olib kelingan va olib ketilyotgan entropiya**. Nixoyat xar qanday real jarayonda $\Delta S = S_2 - S_1 > 0$, bu termodinamikaning II - qonuni tariflaridan bo'lib, yopiq sistemadagi xar qanday real jarayonda, ushbu jarayonning termodinamik qaytmasligi tufayli entropiya o'sadi. O'z o'zidan ketadigan barcha jarayonlar qaytmasdir.

2. Karno ta'rifi.

Aylanma jarayonda qizdirgichning issiqligi to'liq xolda ishga aylanishi mumkin emas.

To'g'ri siklning termik foydali ish koeffitsienti ;

$$\eta_t = q_u / q_1 = 1 - q_2 / q_1$$

q_1 – ishchi jismga uzatiladigan issiqlik miqdori.

q_2 – ishchi jismdan ajratib olingan issiqlik miqdori.

q_u – sikldagi ishga aylangan issiqlik miqdori

Bundan termik foydali ish ko'effitsienti 1 ga teng bo'lgan issiqlik mashinasini yaratib bo'lmazligi kelib chiqadi.

Teskari sikl deb, sovutish mashinasining va issiqlik nasosining doiraviy jarayoniga aytiladi. Unda q_2 sovutgichdan issiqlik qabul qiluvchiga berish uchun tashqarida ish sarflanadi. Teskari siklni tashqaridan ish sarflamasdan amalga oshirib bo'lmaydi.

Termodinamikaning II qonuniga **Klauzius ta'rifi** - issiqlik sovuq jismdan undan issiqroq jismga bekordan bekorga o'ta olmaydi.

Termodinamikani II qonunining analitik ifodasi, **Gu-Stodol** tenglamasi ($dQ < TdS$) qaytmas jarayon xisobiga ximoyalangan termodinamik tizim ish qobiliyatining kamayishi undagi entropiyaning o'sishiga proporsionaldir degan xulosani ifodalaydi.

$$\Delta A = T_2 \Delta S \text{ qaytmas.}$$


ΔA – tizim ish qobiliyatining pasayishi

$\Delta S_{\text{qaytmas}}$ – entropiyaning o'zgarishi

T_2 – sovutgich temperaturasi.

3. Kaytar va kaytmas jarayonlar

Kurib utgan (1-1 rasm) misolimizda Q_1 va Q_2 issiqlik okimlari miqdor jihatdan teng, muxim parametri – temperatura bilan farqlanadi. Jarayon borishi uchun xarakatlantiruvchi kuch kerak ya'ni T_1 temperatura T_2 temperaturadan baland bulishi kerak. Agar eritmani kaynash temperaturasi distillyat (bug'lardan xosil bulgan suv) temperaturasidan farqlanmasa xam bu fark saklanib koladi. Fakat cheksiz syokin yoki anikrogi «kvazistatik» yoki qaytar jarayonda, $T_1 = T_2$ buladi. Bu gipotetik (xayoliy) jarayonda ikkilamchi issiqlikni yana qaytadan suvni bo'g'latish uchun sunggi apparatda foydalanish mumkin (1-2 rasm) yoki issiqlik keltiruvchi sifatida shu apparatni uzida ishlatishga qaytarish mumkin.



1-2 rasm. Bug‘latishning kvazistatik kup korpusli

jarayoni sxemasi (I, II, III – navbatma-navbat urnatilgan bug‘latish apparatlari)

Birok real sharoitlarda issiklik sistemadan oddiygina «utadi» deb bulmaydi, chunki utish davrida uzining «foydalilik», «keraklilik» kabi muxim sifatlarini («potensial», ishchanlik kobilyatini) foydali ish bajarishida yuqotadi. Agarda suv bug‘langanda issiklik tashuvchi T_1 temperaturasi suv kaynashi uchun ancha yukori (ya’ni $T_1 > 100^0S$) issiklik tashuvchi suv bug‘lari erdamida T_2 temperaturada $T_2 = 100^0S$ sunggi apparatda suvni bug‘lantirib bulmaydi (agar bug‘lanish bu apparatda atmosfera bosimida amalga oshirilsa). Demak, ikkilamchi issiklikning sifati ya’ni ikkilamchi issiklik Q_2 issiklik Q_1 -ga teng emas. Issiklikning «foydalilik» «keraklilik»ligi kamaydi. Undan albatta, misol uchun apparat II da vakuum vujudga keltirilgan xolda suvni bug‘lantirish uchun foydalanish mumkin, vakuumni vujudga keltirish uchun yana kushimcha ish sarflash kerak. Vakkumni vujudga keltirish yoki II apparatda suvni bug‘lantirish uchun qushimcha miktorda T_1 temperaturada issiklik sarflash kerakmi yoki yukmi? —bu savolga termodinamik, sungra texnik-iktisodiy taxlillar javob beradi. Ikkilamchi issiklikdan boshkacha foydalanish mumkin, masalan suvni emas, balki pastrok temperaturada kaynaydigan boshka moddani yoki bu issiklikni xonalarni isitishda va x.k. ishlatish mumkin. Bu ikkilamchi issiklikni ishlatishning foydali va tug‘ri yulidir. Ammo, yukorida aytganimizdek «yukoripotensialli» issiklik albatta «pastpotensiallikga» aylanadi, ya’ni uning temperaturasi pasayadi (agar $T > T_0$). SHuning uchun «pastpotensialli» issiklik doimo ortikcha paydo buladi va undan ratsional foydalanish usullarini axtarishga tug‘ri keladi. Oddiy energiya tejash (uning mikdorini va termonidamikani birinchi konuniga muvofik) emas, balki “yukori

potensialli” energiyani ya’ni uning sifatini saqlash muammodir.

Bunday taxlil sifatli xarakteristikaga ega. $T_2 < T_1$ bulganda vujudga keladigan yukotmalarni mikdoriy xarakteristikasi kerak. Buni bajarish kiyin emas. Agar $Q_1 = Q_2$, balsa, u xolda $Q_1/T_1 < Q_2/T_2$.

Umumiy xolda issiklik tashuvchi Q_1 issiklikni uzgarmas temperaturada emas (masalan, suv bug‘ining kondensatsiyasi davrida), balki uzgaruvchan temperaturada (issik gaz yoki suyuklik yoki bug‘gaz aralashmasini kizdirish davrida kuzatiladi) berishi mumkin. Q_2 issiklikni uzgaruvchan temperaturada (bug‘ aralashmasining kondensatsiya, gaz va suyukliklarning sovutilishida va x.k.) yukoridagi uxshash olib ketishi mumkin. Nixoyat, Q_1 va Q_2 issiklikni bir necha okimlar bilan turli temperaturalarda keltirishi va olib ketishi mumkin.

$$\text{U xolda} \quad \int_{T_1}^{T_2} \frac{\partial Q_1}{T} < \int_{T_1}^{T_2} \frac{\partial Q_2}{T} \quad (1.4)$$

d – yoki ∂ differensial (xarf belgi);

Q – ishorasi yopik kontur buyicha olingan integralni ifodalaydi Mos ravishda $S_1 < S_2$ ekaniga kiyinchiliksiz ishonsa buladi. Bu erda S_1 va S_2 – issiklik tashuvchi va sistemadan okim olib ketuvchi entropiyadir.

Nixoyat, xar kanday real jarayonda $\Delta S = S_2 - S_1 > 0$, bu esa termodinamikaning ikkinchi konunining ta’riflaridan biri bulib, yopik sistemadan xarkanday real jarayonlarda, ushbu jarayonlarning termodinamik kaytmasligi tufayli entropiya usadi.

SHunday kilib, energetika nukta nazaridan chinakamiga «seziladigan» «dagal», «kurinadigan» xarkanday jarayonning natijasida aslida energiya sarfiyoti emas, balki entropiya usadi (entropiyani «ishlab chikarish»). Energetik sarfiyotlarni pasayishi, entropiya «ishlab chikarishni» kamayishi umumiy (boshlanishi uchun rasmiy) yunalishdan kelib chikadi. Bunday umumiy konundan energetik sarfiyotlarni kamaytirishning cheksiz kup usullari kelib chikadi. Konkret jarayonlarga tegishlilarining ayrimlari ustida keyinchalik tuxtatib utamiz. Entropiyani «ishlab chikarishi»ni kamaytirish uchun jarayonning termodinamik **kaytmasligini kamaytirish zarur buladi**. YUkorida aytganimizdek, barcha real termonidamik jarayonlar kaytmas, biroq kaytmaslikni kamaytirib, kaytar jarayonni oxirgi chegarasiga yakinlashtiradi, ya’ni $S_2 = S_1$. SHu

munosabat bilan kaytmas va kaytar jarayonlar tushunchasi prinsipial axamiyatga ega. Keyinroq bu tushunchalar batafsil kuriladi.

Kaytar jarayon – bu ideallashtirilgan jarayon bulib, u teskari yunalishga borganida atrof muxitda xech kandy uzgarish sodir bulmaydi. Boshkacha kilib aytganda kaytar jarayon – bu shunday jarayon, u borishida energiyaning «ishchanlik kobilyati» (yoki «kerakligi» xuddi shuni uzi) pasaymaydi.

Kaytar jarayonga boshkacha ta'rif xam berish mumkin – bu jarayon borishida maksimal foydali (elektrik yoki mexanik) ish bajariladi, yoyinki teskari jarayon amalga ohsa iste'mol kilinadigan ish minimal buladi, yoyinki siklik jarayon borishida yigindidan iborat ish nulga teng buladi. «Kaytar jarayon» atamasining qaerdan kelib chikkani shundan ravshan buladi. Uni ya'ni jarayonning tugri yunalishida bajarilgan foydali ish xisobiga «sarfietsiz» teskari, yunalishda amalga oshirish mumkin.

1-1 rasmda keltirilgan misoldan kurinib turiblik T_2 temperaturada olingan bug'larni kondensatsiya kilib, T_1 temperaturada suyklikni bug'lantirish kerak bular edi. Bu mumkin emas, chunki $T_2 < T_1$. Demak, biz muxokama kilgan jarayon, barcha real jarayonlar singari termodinamik kaytmas.

Kaytmas jarayonni ifodalash davrida foydalanilgan tushunchaga kushimcha izox berish kerak buladi. Bu tugrisida keyinroq tuxtab utamiz. Dastlab isbotsiz maksimal foydali ishni (ya'ni mexanik ish yoki elektr energiyaning) kaytar jarayonda olish mumkinligini T_1 temperaturada isitgich va T_2 temperaturada sovutgichdan energiya manbai sifatida issikligidan foydalanib, termodinamikaning ikkinchi konuniga mos ravishda kuyidagini xosil kilamiz:


$$A - Q(1 - T_2/T_1)$$

(1.5)

bu erda A – mexanik ish (yoki elektroenergiya).

Mexanik ish va elektr ish energiyaning «yukori sifatli» turlariga kiradi. Ulardan foydalanilganda yukotmalar mavjudligi xam kuzatiladi, biroq ular entropiya ortishiga boglik emas (bu tushunchani bu turdagi energiyalar xarakteristikasi uchun kullab bulmaydi). SHunday jarayonda (1-3 rasm) foydali ish xosil kilinadi, bir kism isiklik Q_2 esa mukarrar (termodinamikaning ikkinchi konuniga muvofik) sovutgichga olib kelinadi, shu bilan birga termodinamikaning birinchi konuniga muvofik u (bir kism issiklik) baravar

Q_2-Q_1-A . Birinchidan yukorida keltirilgan kaytar jarayon tushunchasi ancha umumiy bulib, kimyoviy jarayonlarda mexanik yoki elektr energiya doimo iste'mol kilinavermaydi va ishlab chikarilavermaydi. «Termodinamik kaytar jarayon», «termodinamik kaytmas jarayon» kabi tushunchalar juda keng jarayonlar doirasiga kirib, shu jumladan kimyoviy reaksiyalarga xam taaluklidir. Bu tushunchalar «kaytar kimyoviy reaksiya» «kaytmas kimyoviy reaksiya» tushunchalari bilan bevosita boglik bulmay, ular reaksiyalarning kimyoviy muvozanatlarini ya'ni reaksiya konkret sharoitda oxirigacha ketadimi (kaytmas reaksiya) yoki reaksiyaning muvozanat konstantasi oxirgi songa egami va reaksiya oxirigacha boradimi (kaytar reaksiya) xarakterlaydilar.



Rasm 1-3. Foydali ish olishda issiklikni aylantirish jarayonining sxemasi

Kaytar kimyoviy reaksiyani kaytmas termodinamik yul bilan olib borish mumkin, termodinamik kaytar yul, ya'ni maksimal foydali ishni xosil kilish bilan olib borishga xam intilish mumkin.

Kimyoviy reaksiyalarning termodinamik kaytarligini ortirish usullari keyinrok batafsil kurib chikiladi. Jarayonning termodinamik kaytar sharoiti zarurligi (juda etarli emasligi) kuyidagilardan iborat: jarayonning xarakatlantiruvchi kuchi jarayon davomida apparatning barcha nuktalarida cheksiz kichik bulishi kerak. Bunday sharoit yukorida keltirilgan misoldan juda ravshan. Birok jarayonning termodinamik kaytarligini ta'minlash uchun bu shartlarga rioya kilmok kamlik kiladi.

Texnikada kaytmas termodinamikaga xos biroq juda kichik xarakatlanuvchi kuch bilan kechadigan jarayonlar ma'lum. Jumladan kupchilik aralashtirish jarayonlari, masalan, kattik moddalar va gazlarning eritmalarda erishi.

Tula aralashtirish apparatlari foydasiz va xatto xarakatlantiruvchi kuchning

kamaytirib zien etkazishiga xarakterli misol bulaoladi. Agarda shunday apparatda A+V-S+D reaksiyasi utaetgan bulsa, u xolda ulardagi S va D reaksiya maxsulotlari dastlabki A va V maxsulotlari bilan apparatning chekkalarida tula aralashadilar. Agar kimyoviy reaksiya kaytar bulsa, u xolda jarayonning xarakatlantiruvchi kuchi aralashmay siljiydigan maxsulotlar (kattik porshen shunday xarakatlanadi) tula sikib chikaruvchi apparatning xarakatlantiruvchi kuchiga karaganda esa kamayadi. Tula aralashtirish apparatida reaksiyaning utish darajasi, foydali maxsulotning chikishi, xom ashedan foydalanishi darajasi kamayadi, bu esa xech kachon kandaydir foydali effektlar bilan tabiiyki kompensatsiyalanmaydi. Etarli termodinamik kaytar jarayon sharoitida maksimal foydali ishni jarayon borishida ishlab chikarish yukorida keltirilgan talabdan kelib chikadi. «Kaytar termodinamik» jarayonlar (yukorida kilingan tushuntirishlarga kura) adabietda kullanadigan «kvazistatik jarayon» «kvazimuvozanat jarayon», «muvozanat jarayon» tushunchalarning sinonimlari xisoblanadi. Kisman yoki tula kaytmas jarayonlar misollari juda xam turlichadir. SHunday kilib, ideal gaz va suyukliklarni aralashtirish jarayoni amalda tula kaytmasdir. YArim utkazuvchan membranalarni kullab xaeliy (gipotetik) tuzilmadan foydalanib, bu xolda yukotilgan ishni kaytarish mumkin bular edi. Noideal aralashmalarni xosil bulishida (issiklik effekti bilan utuvchi) bir kism yukotilgan ishni kaytarish mumkin. Turli temperaturada moddalar okimini aralashtirilganda kaytmaslikdan paydo buladigan yukotmalar kattadir. Kupincha gazlarni drosellashtirishda (gaz utishini tartibga soluvchi klapan) kup yukotmalar vujudga keladi, kriogen oblastida (doirasida) esa kupincha bu jarayonda kaytmaslik darajasi etarlicha katta buladi.

Kimyoviy reaksiyalarning kaytmaslik darajasi reaksiya utish sharoitiga kattik boglik buladi. Termodinamik kaytar jarayonga yakinlashish mukarrar syokinlashishni oxirgi chegarasiga etgangacha (v predele) davom etishini bildiradi deb xisoblashadi (bu xolda madomiki xarakatlanuvchi kuch nolga intiladi). Birok bu xulosa oxirgi chegaraga etgan xoldagina xakkoniy buladi, bu esa amaliy axamiyatga ega emas. Bunday xulosa real vaziyatda ya'ni kaytarilishiga asta –syokin yakinlashish umumiy xolda notugri. Kaytar jarayonni kupaytirish kupincha uning tezlugini pasaytirishga olib kelmaydi. CHEksiz syokin jarayon kaytar jarayonga kupincha yakin emas. Xakikatan xar kanday jarayonning tezligi W ga teng:

$$W=RF\Delta y$$


Bu erda, R – umumlashtirilgan kinetik koeffitsient; F – jarayon kechadigan apparatning sirti (yoki xajmi); Δy – umumlashtirilgan urtacha xarakatlantiruvchi kuch.

Agarda apparatning kandaydir bir kesimida (yoki nuqtasida) xarakatlanuvchi kuch Δy nolga teng bolsa bir tomondan, u xolda urtacha xarakatlantiruvchi kuch Δy xam nolga teng, demak, urtacha jarayon tezligi $W=0$. Nolli tezlikga karamasdan jarayon kaytmas chunki xarakatlanuvchi kuch boshka kesimlarda nolga teng emas. Boshka tomondan $\Delta y = 0$ va $F = \text{const}$ bulganda yukori qiymatli kinetik koeffitsientli jarayonlarning mavjudligini inkor kilib bulmaydi ya'ni Δy qiymatini kamaytirishni issiklik va massaalmashinuv (issiklik – va massaalmashinuv jarayonlarida), kimyoviy reaksiyalarda faolrok (aktivrok) katalizatorlardan foydalanilganda koeffitsient R ortishini kompensatsiya kilish mumkin. Bunday kompensatsiya ma'lum chegaragacha albatta bulishi mumkin, chunki, odatda issiklik – va massauzatish koeffitsientlarining ortishi kaytmas jarayonni usishiga olib keladi. SHunday kilib, okimlar tezligining ortishi massa – va issiklik uzatish koeffitsientlarini ustiradi, biroq birvarakayiga apparatlarning gidrodinamik karshiligining ortishi kuzatiladi. \rightarrow Jadallashgan apparatlar, odatda katta karshilikga ega buladilar.

Texnologlarning ishongan keng tarkalgan fikrlaridan biri agar reaktorlardan (massa almashinuv apparatidan, issiklikalmashtirgichdan) chikishida muvozanat urnatilsa u xolda jarayon takomillashuvga erishdi deb xisoblanadi. Bu yukorida aytilganlarga kura notugri. Energetika nuqtai nazaridan xarakatlantiruvchi kuchning (chegaragacha) apparatdan chikishida emas, balki uning xoxlagan nuqtasida yukligi jarayonning takomillashuviga zarur sharoit xisoblanadi. Agar bu talab xisobga olinmasa, ortikcha xarakatlantiruvchi kuch yoki bevosita ushbu apparatning uzida, yoki boshka boskichlarida energetik yukotmalarga olib keladi. Oxirgi doimo sezilarli bulmaydi. SHunday kilib, yokilgini endirganda uni energiyasini yukori parametrli bug' va issik suv olish uchun foydalanish mumkin. Kupincha keyinchalik kampotensialli issiklik iste'molchilari yukligi va bu issiklikdan tula foydalanilmaydi, balki tashlab yuboriladi. Buning sababi ikkilamchi energetik resurslaridan foydalanish emon tashkil kilinishda emas, balki oldingi boskichda ularning energiya «sifati» yukolganligidadir. Bunday misollar juda kup kuzatiladi.

Kup kimyoviy reaksiyalar juda tez utadi va amalda muvozanatga erishiladi. Birok bu xolda jarayonning xarakatlantiruvchi kuchi, reaktorning boshlangich kesimida juda katta bulishi mumkin. 1-4 rasmda kaytar reaksiyaning utishida jarayonning

xarakatlantiruvchi kuchi uzgarishi $\Delta u_i = u_i - u_i^*$ (bu erda u_i – dastlabki komponentning konsentratsiyasi kupchilik kimyoviy reaktorlar uchun xarakterli ekanligi kursatilgan).



1-4 rasm

To‘g‘ri o‘tadigan reaktorlarda reaksiya utishi davrida ishchi (u_i) va muvozanat (\hat{y}_i) konsentratsiyalarning uzgarishi (– reaksiya utish darajasi).

Rasmdan kurinib turibdiki u_i ishchi konsentratsiya asta-syokin yukolib boradi, u_i^* muvozanatli konsentratsiya esa ortib boradi. Natijada apparatdan chikishda bu qiymatlar bir-biriga juda yaqin, ammo foydali ish yukotmalarini xarakterlaydigan egri chiziklar orasidagi maydon (va ortikcha energetik sarfiytlar) katta.

Jarayonni kvazistatik ravishda shakllantirishda ishchi chizik muvozanat chizigiga mos keladi (apparatdan chikaetganda fakatgina chiziklar bir-biriga tegmasdan). Bu masalalar keyinrok batafsil kuruladi. Birok yukorida aytilganga kura, energetik sarfiytlarni kamaytirish uchun ya’ni jarayonni kaytar yul bilan amalga oshirish uchun jarayonning xarakatlantiruvchi kuchini kamaytirish lozim ya’ni unga amalda xalakit berish kerak. SHu bilan birga, yukorida aytganimizdek, bu kamayish zarurdir, ammo bu maksadga erishish uchun sharoit etarli emas. Bu xolda maksimal ishni olish zarur.

Tayanch suzlar va iboralar: kvazistatik, foydalilik, keraklilik, ikkilamchi issiklik, yukoripotensialli, pastpotensialli, entropiya, kaytar jarayon, ishchanlik kobiliyati, kaytmas jarayon, yukori sifatli energiya, xarakatlantiruvchi kuch, kvazistatik jarayon, kvazimuvozanat jarayon, muvozanat jarayon.

Iboralar va undagi izoxlar.

Termodinamika omili – ishchi jismni yoki tizim xolatini ta’riflab beruvchi kattalikdir.

Ideal gaz – bu gazning nazariy modelidir.

Real gaz – molekulalar bir biri bilan bolanish kuchi asosida tortishib turadigan gaz.

Entalpiya – ish termik xolatining funksiyasi.

Izobar jarayon – o‘zgarmas tashqi bosim tizimida ketayotgan jarayon.

Reyting nazorat savollari.

1. Kaytar va kaytmas jarayonlar
2. Xarakatlantiruvchi kuch nima?
3. Real sharoitlarda issiklik sistamadan oddiygina «utadimi»?
4. Issiklik foydalilik, keraklilik kabi muxim sifatlarini («potensial», ishchanlik kobiliyatini) foydali ish bajarishida yukotishiga misol keltiring.

Maksimal foydali ish. Le-SHatele prinsipi

№6–ma’ruzaning o‘qitish texnologik modeli (2 SOAT)

O‘qitish vahti: 2 soat	Talabalar soni – ___ ta
O‘quv mashg‘ulotining shakli	Ma’ruza
Ma’ruza rejasi	1. Termodinamikaning ikkinchi qonuni. 2. Karno ta’rifi 3. Kaytar va kaytmas jarayonlar 4. Iboralar va undagi izoxlar.
Ma’ruzaning maksadi	Talabalarga termodinamikaning ikkinchi qonuni, Karno ta’rifi, kaytar va kaytmas jarayonlar, xamda iboralar va undagi izoxlar to‘g‘risida ishlab chikarish bilan bog‘lagan holda ma’lumot berish
Pedagogik vazifalar: - Talabalar diqqatini shu kunning asosiy siyosiy iktisodiy voqealar va o‘rganilayotgan mavzuga qaratish; -Talabalarda talabalarga termodinamikaning ikkinchi qonuni, Karno ta’rifi, kaytar va kaytmas jarayonlar, xamda iboralar va undagi izoxlarni o‘rganish davomida olgan ma’lumotlarini o‘z kasb faoliyati davomida nazariy va amaliy tomondan mustakil ko‘llay olish bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish.	O‘qitish faoliyatining mazmuni - Mashg‘ulot boshlanadi, tashkiliy ishlar amalga oshiriladi; -Mavzuning mazmuni rejaga asosan tushuntirila boshlanadi; - Talabalarga termodinamikaning ikkinchi qonuni; - Karno ta’rifi; - kaytar va kaytmas jarayonlar; - iboralar va undagi izoxlar tug‘risida xam ma’lumot berib o‘tiladi.

O'qitish uslubi	Ma'ruza, muloqot, aqliy xujum, muammoli holatlar va ularning echimini topish.
O'qitish vositalari	Kompyuter, plakat, maketlar. ma'ruzaning tarqatma materiallari.
Monitoring va baxolash	Talabalarning o'quv materialini konspektlashtirish va mavzunini tushunib o'zlashtirib borishini nazorat qilish.

Kafedra mudiri:

Umirov F.E.

Ma'ruza o'qiydi:

katta o'qituvchi Xudoyberdiev F.I.

_____ KT guruhida «Energotexnologiya» fanidan

Maksimal foydali ish. Le-SHatele prinsipi

№ 6– ma'ruzaning o'qitish texnologik xaritasi

Ishning bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talabalar
Tayyorgarlik darajasi	- Mashg'ulot borishini texnologik modeli va texnologik xaritasini tuzadi; -Tarqatma materiallar, ko'rgazmali qurollar, o'qitishning axborot informatsion vositalarini tayyorlaydi.	Ma'ruza matnini oladi, uning mazmuni bilan tanishadi, tayyorlanadi
I-boskich Mashg'ulotining boshlanishi (10 min)	1.1. Tashkiliy tadbirlarni amalga oshiradi; davomatni tekshiradi; ijtimoiy hayotda sodir bo'layotgan asosiy o'zgarishlarni yangi mavzuni e'lon qiladi. 1.2. Mavzuga doir asosiy iboralarni aytib, axborot informatsion manbaalar bilan tanishtiradi.	-Tinglaydi, aniqlashtiradi-yangi mavzu va uning maqsadi, rejasini belgilab oladi;

<p>II bosqich Asosiy bosqich (65 min)</p>	<p>2.1. qisqa savol-javob o'tkazib yangi mavzuni dolzarbligi ochib beriladi. - hayotda va ishlab chiqarishda mavjud hodisa muammolariga oid savollar beradi va holatlarni eslatadi. - Talabalarning diqqatini yig'adi va mavzuni tinglashga yo'naltiradi. 2.2. Mavzu bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirishni tashkil etadi. - Reja bo'yicha ma'ruzani bayon etadi. - Ma'ruzada termodinamikaning ikkinchi qonuni tug'risida ma'lumot beradi.</p>	<p>-Ma'ruzani tinglaydi, matnni to'ldirib boradi, yangi iboralarni tushunib aniqlashtiradi, o'zlashtiradi. Savol-javobda qatnashadi, muhokama qiladi Sxema-rasmlarni kuzatadi va tahlil qiladi;</p>
<p>III bosqich YAKuniy bosqich (5 min)</p>	<p>3.1. Mavzu bo'yicha mustaqil ta'lim topshiriqlarini, uning o'quv-uslubiy ta'minoti va bajarilishi bo'yicha tegishli yo'riqnoma beradi.</p>	<p>Tinglaydi, aniqlashtiradi, matnni to'ldiradi. Tinglaydi, aniqlashtiradi, belgilab oladi.</p>

Kafedra mudiri:

Umirov F.E.

Ma'ruza o'qiydi:

katta o'qituvchi Xudoyberdiev F.I.

6 – MA'RUZA (2 SOAT)

Maksimal foydali ish. Le-SHatele prinsipi

Reja:

1. Maksimal foydali ish.

2. Gibbs energiyasi

3. Le-SHatele prinsipining kulanilishi

Berilgan bosimda va temperaturada maksimal foydali ish sistemaning izobar-izotermik potensialining (yoki erkin entalpiya), Gibbs energiyasi uzgarishining xuddi uzi)

uzgarishiga teng.
$$\Delta G = \Delta H - T\Delta S = \Delta H - T \int_{T_1}^{T_2} \frac{\delta Q}{T} \quad (1.6)$$

bu erda ΔN – jarayoning borishida entalpiyaning uzgarishi (jumladan kimyoviy reaksiyaning); T – temperatura; ΔS – entropiyaning uzgarishi; δQ – issiklik mikdorining cheksiz kichik uzgarishi.

Madomiki $\delta Q = dH - v dP \quad (1.7)$

Ideal gaz uchun $Pv=RT$ nazarda tutib, (1.6 va 1.7) tenglamalardan ayrim xol uchun quyidagini olamiz:

$$\Delta G = \Delta H - T \int_{T_1}^{T_2} \frac{dH}{T} + T \int_{T_1}^{T_2} \frac{v dP}{T} = (H_2 - H_1) - T \int_{T_1}^{T_2} \frac{dH}{T} + RT \lg \frac{P_2}{P_1} = (H_2 - H_1) - T \int_{T_1}^{T_2} \frac{dH}{T} + RT \lg \frac{v_1}{v_2}$$

(1.8) tenglamada birinchi xad jarayon borishida entalpiyaning, ikkinchi va uchunchi xadlar esa entropiyaning uzgarishini xarakterlaydi. Tenglamadan kurinib turibiki, birinchi ikki xad kimyoviy reaksiyaning ishorasi va issikligining kiymatiga, (yoki boshka jarayondan), uchunchi xad esa reaksiya davomida bosimning kanday uzgarishiga boglik buladi.

2. Gibbs energiyasi

Ma'lumki, Gibbs energiyasining kamayishi reaksiyaning utishiga sharoit yaratadi ya'ni ΔG kiymatini noldan kichik bulishi kerak ($G_{\text{oxirg.}} - G_{\text{boshlan.}} = \Delta G < 0$). Kupincha ayrim xollarda entropiya uzgarishining ta'sirini xisobga olmasak, kimyoviy reaksiya utishi sharoiti entalpiyani kamayishi $\Delta N < 0$, $N_2 < N_1$ (ekzotermik reaksiya) bilan boglik buladi, ya'ni bu xolda Bertelo prinsipi xak buladi (1.8) tenglamada umumiy xolda $\Delta G < 0$ shartiga rioya kilinadi, agarda reaksiya fakatgina issiklik chikarish bilangina utmay balki xajmining ortishi bilan ($v_2 > v_1$) utsa.

(1.8) tenglamaning ikkinchi xadi bu xolda teskari ta'sir kursatadi ya'ni entalpiya uzgarishining absolyut kiymati kancha katta balsa, tenglamaning $T \int_{T_1}^{T_2} \frac{dH}{T}$ xadining absolyut kiymati shuncha katta buladi. Agar $\Delta N = 0$, u xolda reaksiyani utishi uchun reaksiya davrida xajm ortishi zarur buladi ($v_2 > v_1$), Agar reaksiya endotermik balsa ($\Delta N > 0$) reaksiya utishi uchun $v_2 > v_1$ zarur (etarli emas) sharoit bulaoladi. Nixoyaviy javobni konkret xisobdan sung fakatgina olish mumkin.

Xususiy xollarda (1.8) tenglama juda oddiy tenglamalarga aylanadi. Agar, xajm reaksiya utishida uzgarmasa, reaksiya issikligi reaksiya aralashmasini kizdirishga sarflansa, u xolda: $dH = C_p dT$ va


$$\Delta G = \Delta H - T \int_{T_1}^{T_2} \frac{C_p dT}{T} = \Delta H - T C_p \lg \frac{T_2}{T_1} \quad (1.9)$$

Agar entalpiya jarayon borishida uzgarmasa ($\Delta N = 0$), misol uchun ideal gazning

kengayishida tenglama quyidagi kurinishga ega buladi.

$$\Delta G = RT \ln \left(\frac{P_2}{P_1} \right) = RT \ln \left(\frac{v_1}{v_2} \right) \quad (1.10)$$

Kimyoviy reaksiyada



$$\Delta G = RT \left(\ln \frac{a_c^h \cdot a_d^j}{a_A^n \cdot a_B^m} - \ln K_a \right) \quad (1.11)$$

bu erda a- dastlabki reaksiya aralashmasida komponent aktivligining koeffitsienti; h, j, n, m – stexiometrik koeffitsientlar; K_a – suyuq noideal eritmada reaksiya ketganda komponentlar aktivligi orkali ifodalangan muvozanat reaksiyasining termodinamik

$$\text{konstantasi: } K_a = \frac{(a_{c^*})^h \cdot (a_{d^*})^j}{(a_{A^*})^n \cdot (a_{B^*})^m} \quad (1.12)$$

Agar reaksiya gaz fazasida utsa, tenglamaga (1.11) aktivlik urniga uchuvchanlik (fugitivlik) va f_i uchuvchanlik orkali ifodalangan muvozanat konstantasi kiradi. Agarda suyuq yoki gazoviy fazaning ideal aralashmasidan iborat bulsa, (1.11) tenglamaga suyuq fazaning x_i komponentlarning konsentratsiya va konsentratsiya orkali ifodalangan K_x muvozanat konsentratsiyasi yoki R_i komponentning parsial bosimi va parsial bosim orkali ifodalangan K_r muvozanat konstantasi kiradi, ya'ni mos ravishda:

$$\Delta G = RT \left(\ln \frac{X_c^h \cdot X_d^j}{X_A^n \cdot X_B^m} - \ln K_x \right) \quad (1.13)$$

$$\Delta G = RT \left(\ln \frac{P_c^h \cdot P_d^j}{P_A^n \cdot P_B^m} - \ln K_p \right) \quad (1.14)$$

Madomiki xarakanday reaksiya fakat Gibbs energiyasi kamayishi yunalishida borsa, reaksiyani kaytar xolda olib borilganda esa maksimal foydali ishni olish mumkin $A = -\Delta G$, mexanik yoki elektrik energiyaning mikdori reaksiya aralashmada erkin energiyaning reaksiya temperaturasida kamayishiga baravar. Kimyoviy kaytar yulda olib borishini ta'minlovchi ideal kurilma bulib, uni amalga oshiradigan yokilgi elementi xisoblanadi. Unda Vant-Goff ya'ni tipidagi tuzilmada kimyoviy reaksiya energiyasi bevosita elektr energiyasiga utadi.

Real sharoitlarda kimyoviy reaksiyalar kupincha kaytmas xolda utadi ya'ni ular Gibbs energiyasidan fakatgina kam darajada foydalaniladi. Gibbs energiyasi

yukotmalarini kamaytirishini ta'minlaydigan turli texnik usullar ishlab chikilgan, bular tugrisida keyinroq batafsil tuxtab utamiz.

YUkorida kursatilganlardan umumiy xarakterga ega bulgan ba'zi bir xulosalarni kilishimiz mumkin. Ushbu xolatdagi sistemadagi Gibbs energiyasi $\sum_{\text{boshl.}}^n G$ - va muvozanat sharoitidagi Gibbs energiyasi urtasidagi ayirmaga teng $\Delta G = -\sum G_{\text{oxirgi}} + \sum G_{\text{boshl.}} \geq 0 - \Delta G$ kiymati doimo musbat va xarkanday jarayonning umumlashtirilgan xarakatlantiruvchi kuchidan iborat (shu jumladan kimyoviy reaksiya, masaalmashuv jarayoni). Reaksiyani kvazistatik yul bilan olib borilganda ΔG cheksiz syokin uzgarishi kerak ya'ni xarkanday damda $\Delta G = 0$. Bu yukorida aytilgandek jarayonning kaytmasligi uchun zarur, yoki etarli shart emas.

$$\text{Madomiki } dG = -SdT + VdP \quad (1.15)$$

$$\text{U xolda } (\partial \Delta G / \partial T)_p = -\Delta S \quad (1.16)$$

$$\text{va } (\partial \Delta G / \partial T)_T = \Delta V \quad (1.17)$$

$$\text{Ekzotermik izobar jarayonida sistema entalpiyasi ozayadi ya'ni } \Delta S_{\text{cucm.}} = \int_{T_1}^{T_2} \frac{dH}{T} < 0.$$

Demak, (1.16) tenglamaga mos ravishda temperaturani ortishi bilan ΔG kiymati ortadi, ya'ni reaksiya muvozanati chapga dastlabki komponentlar tomoniga siljiydi, jarayonning xarakatlantiruvchi kuchi esa kamaya boshlaydi. Temperatura pasayishi bilan muvozanat mos ravishda unga siljiydi.

SHunga uxshash, endotermik reaksiya muvozanatini unga siljitish uchun temperaturani kutarish kerak. SHunday kilib, (1.16) tenglama Le-SHatele prinsipini asoslaydigan natijalardan iborat.

Le-SHatele (anikrogi Le-SHatele-Braun) prinsipining moxiyati termodinamikaning ikkinchi konunidan kelib chikishiga kura kuyidagidan iborat. Agar sistema barkaror termodinamik muvozanat xolatda bulsa, unga tashkaridan shunday ta'sir kursatilsaki, unda muvozanat xolati uzgarsa, u xolda sistemada shunday jarayonlar kuchayadiki, ularga ta'sir kiluvchi effektlarni kamaytiradi.

